

## XARAKTERNING SHAKLLANISHI VA INSON FAOLIYATIGA TA'SIRI

Xalbayeva Gulnoza Arshidinovna

KDPI Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrasi v/b dotsenti., PhD.

Norberdiyeva Jasmina

KDPI O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20135257>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xarakter tushunchasi, uning psixologik mohiyati hamda inson hayotidagi o'rni keng yoritilgan. Maqolada inson xarakterining uning hayot yo'li, maqsadlari, jamiyatdagi o'rni va muvaffaqiyatlariga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida ham batafsil ma'lumot berilgan. Kuchli iroda, mas'uliyat, mehnatsevarlik, halollik, sabr-toqat va qat'iyatlilik kabi ijobiy xarakter xususiyatlari insonning jamiyatda o'z o'rnini topishida muhim omil bo'lib xizmat qilishi yoritilgan. Shu bilan birga, salbiy xarakter sifatlarining inson faoliyati va ijtimoiy munosabatlariga ko'rsatadigan ta'siri ham tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Xarakter, shaxs, psixologiya, irodaviy sifatlar, temperament, shaxs kamoloti, tarbiya, ma'naviyat, mehnatsevarlik, mas'uliyat, qat'iyatlilik, sabr-toqat, insoniy fazilatlar, ruhiy rivojlanish, ijtimoiy munosabatlar, shaxsiy rivojlanish.

**Аннотация:** В данной статье подробно рассматриваются понятие характера, его психологическая сущность и значение в жизни человека. В статье также подробно раскрывается влияние характера на жизненный путь человека, его цели, место в обществе и достижения. Подчеркивается значение таких положительных качеств характера, как сила воли, ответственность, трудолюбие, честность, терпение и решительность, которые помогают человеку добиться успеха и занять достойное место в обществе. Вместе с тем анализируется влияние отрицательных черт характера на деятельность личности и её социальные отношения.

**Ключевые слова:** Характер, личность, психология, волевые качества, темперамент, развитие личности, воспитание, духовность, трудолюбие, ответственность, решительность, терпение, человеческие качества, психическое развитие, социальные отношения, личностное развитие.

**Annotation:** This article broadly discusses the concept of character, its psychological essence, and its role in human life. The article also explains in detail how character influences a person's life path, goals, social position, and achievements. Positive character traits such as strong will, responsibility, diligence, honesty, patience, and determination are highlighted as essential qualities that help individuals achieve success and gain respect in society.

**Keywords:** Character, personality, psychology, willpower, temperament, personality development, education, spirituality, diligence, responsibility, determination, patience, human qualities, psychological development, social relations, self-development.

**Kirish.** Inson hayoti davomida uning dunyoqarashi, xulq-atvori, odamlarga bo'lgan munosabati va jamiyatdagi o'rni ko'p jihatdan xarakteriga bog'liq bo'ladi. Xarakter inson shaxsining eng muhim psixologik xususiyatlaridan biri hisoblanib, u insonning hayotiy faoliyatida, muomala madaniyatida, qaror qabul qilishida va turli vaziyatlarga bo'lgan munosabatida yaqqol namoyon bo'ladi. Har bir insonning xarakteri o'ziga xos bo'lib, aynan shu jihat uni boshqalardan ajratib turadi. Shu sababli xarakter masalasi qadim zamonlardan buyon psixologiya, falsafa, pedagogika va sotsiologiya fanlarining eng muhim tadqiqot obyektlaridan

biri bo'lib kelmoqda. Xarakter insonning tug'ma emas, balki hayot davomida shakllanadigan psixologik xususiyatidir. Insonning oiladagi tarbiyasi, yashayotgan muhiti, olgan ta'limi, atrofidagi insonlar bilan munosabati hamda jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlar uning xarakter shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, bolalik va o'smirlilik davri inson xarakterining shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Chunki aynan shu davrda insonning odatlari, qiziqishlari, maqsadlari va irodaviy sifatlari rivojlana boshlaydi. Shu bois ota-onalar, pedagoglar va jamiyat vakillari yosh avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti va insonlar o'rtasidagi munosabatlarning murakkablashuvi inson xarakterining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Zamonaviy dunyoda bilimli bo'lishning o'zi yetarli emas, balki inson kuchli iroda, mas'uliyat, sabr-toqat, halollik va qat'iyatlilik kabi ijobiy xarakter xususiyatlariga ham ega bo'lishi kerak. Chunki insonning muvaffaqiyatga erishishi, jamiyatda o'z o'rnini topishi va maqsadlariga erishishi ko'p jihatdan uning xarakteriga bog'liqdir. Ijobiy xarakterga ega bo'lgan insonlar odatda hayotdagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga, to'g'ri qaror qabul qilishga va boshqalar bilan sog'lom munosabat o'rnatishga qodir bo'ladilar. Xarakter insonning nafaqat shaxsiy hayotida, balki kasbiy faoliyatida ham muhim o'rin tutadi. Masalan, o'qituvchi uchun mehribonlik, sabr-toqat va mas'uliyatlilik, shifokor uchun insonparvarlik va diqqatlilik, rahbar uchun esa qat'iyatlilik va adolatlilik muhim xarakter xususiyatlari hisoblanadi. Har bir kasb egasi o'z faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi uchun ma'lum xarakter sifatlariga ega bo'lishi lozim. Shu sababli xarakter insonning hayotiy muvaffaqiyatlari va ijtimoiy faoliyatida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Psixologiya fanida xarakter insonning individual psixologik xususiyatlari majmui sifatida talqin qilinadi. Xarakter insonning hissiyoti, irodasi, odatlari va xulq-atvori bilan uzviy bog'liqdir. Shuningdek, temperament va xarakter tushunchalari bir-biri bilan yaqin bo'lsa-da, ular bir xil ma'noni anglatmaydi. Temperament insonning tug'ma psixologik xususiyati bo'lsa, xarakter asosan tarbiya va hayotiy tajribalar ta'sirida shakllanadi. Demak, inson o'z ustida ishlash, o'zini tarbiyalash va ijobiy fazilatlarni rivojlantirish orqali o'z xarakterini ma'lum darajada o'zgartirishi mumkin. Bugungi globallashtirish davrida yoshlarni ma'naviy barkamol, mustaqil fikrlaydigan, vatanparvar va ijtimoiy faol insonlar qilib tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda xarakter tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki sog'lom va ijobiy xarakterga ega bo'lgan insonlar jamiyat rivojiga katta hissa qo'shadi. Shu bois xarakter va uning inson hayotidagi o'rnini masalasi nafaqat psixologik, balki pedagogik va ijtimoiy jihatdan ham muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada xarakter tushunchasining mohiyati, uning shakllanish omillari, inson hayotidagi ahamiyati hamda shaxs kamolotiga ta'siri haqida batafsil fikr yuritiladi. Shuningdek, ijobiy va salbiy xarakter xususiyatlari, ularning inson faoliyatiga ta'siri hamda xarakter tarbiyasining muhim jihatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

**Asosiy qism:** Xarakter deganda shaxsda muhit va tarbiya ta'siri ostida tarkib topgan va uning irodaviy faolligida, tevarak-atrofdagi olamga (boshqa kishilarga, mehnatga, buyumlarga), o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan individual xususiyatlarini tushunamiz. Xarakter va uning shakllanishi, namoyon bo'lishi uchun kishilarni o'rab olgan muhiti, turli faoliyatlarga turlicha munosabatlar, yashab turgan jamiyatdagi munosabatlar sabab bo'ladi. Kishidagi mustahkamlanib, uning shaxsiy xususiyatiga aylanib qolgan iroda sifatlari xarakterning iroda bilan bog'liq bo'lgan xislatlaridir. Kishining iroda bilan bog'liq bo'lgan xarakter xislatlari, odatda, undagi emotsional xususiyatlar bilan muayyan nisbatda namoyon

bo'ladi. Kishi temperamenti uning xarakteri tarkibiga kiradi, shu sababli ham xarakterning fiziologik asosi nerv sistemasining tipidan iborat. Xarakter xislatlari shaxsning keyin hosil qilinadigan va mustahkamlanib qoladigan xususiyatlari bo'lganligi tufayli, xarakterning fiziologik asosi ham individual hayot jarayonida nerv sistemasining o'zgartirilgan xususiyatlaridan iborat. «Tip hayvon nerv faoliyatining tug'ma konstitutsion turi - **genotip**dir. Lekin hayvon tug'ilganidan boshlab tashqi sharoitning g'oyat xilma-xil ta'sirlariga duch keladi va bunga muayyan faoliyatlari orqali u muqarrar javob berishi lozim bo'ladiki, ko'pincha, bu faoliyatlar mustahkamlanib, nihoyat butun hayoti oxirigacha saqlanib qoladi, shu sababli hayvonning batamom tarkib topgan nerv faoliyati tipga oid belgilar bilan tashqi muhit ta'siri ostida hosil bo'lgan o'zgarishlarning qotishmasidir – fenotip, xarakterdir». I.P.Pavlov . I.P.Pavlov o'zgartirilgan nerv sistemasi tipini katta miya yarim sharlari po'stining sistemalilik ishi bilan va nerv jarayonlarining tarkib topgan, muvozanatli sistemasidan iborat bo'lgan dinamik stereotip bilan bog'laydi. Stereotip shaxsdagi mustahkam odat bo'lib qolgan xususiyatlarning, jumladan, xarakter xislatlarining ham nerv-fiziologik asosidir. «Normal o'sgan odamda ikkinchi signal sistemasi odam xulqining oliy boshqaruvchisidir». Xarakter borasidagi ta'limotlar tarixi uzoq o'tmishga borib tarqaladi. Xususan, Arastu va Aflotun kishi xarakterini basharasiga qarab aniqlashni taklif qilgan edilar. Ularning xarakterologiyasi asosi qanchalik sodda bo'lsa, shunchalik g'aroyib faraz yotardi. Kishining tashqi ko'rinishida qandaydir hayvon bilan o'xshashlik belgisini topish tavsiya qilinardi, so'ngra esa uning xarakterini ana shu hayvonning xarakteri bilan aynan bir xil deb qarash kerak edi. Buqaniki singari yo'g'on burun ishyoqmaslikni bildiradi, chuchqanikiga o'xshash teshiklari katta-katta keng burun axmoqlikni, arslonnikabi kabi burun mag'rurlikni, echkilar, qo'ylar, va quyonlarniki singari junining mayinligi qo'rqqoqlikni, sherlar va yovvoyi chuchqalarniki kabi junning dag'alligi botirlikni anglatadi. Arastu. Xarakterni aniqlashning bu va shunga o'xshash fiziologik tizimi aql-sadosini biz, masalan, o'rta asrlik Suriyalik yozuvchi Abul-Faraj Bar Ebreyda ko'ramiz. Uning kitobida shunday ko'rsatma mujassamlashgandir: “Yo'g'on va kalta bo'yli kishi bo'yval singari qahr g'azabga kelishi moyilligiga ega. Uzun va ingichka bo'yli qo'rqqoqlik alomati. Bunday kishi bug'u singari hurkadigan bo'ladiki, qaysi birining bo'yni juda kichik bo'lsa, tulki singari makkor bo'ladi”. XVIII asrda

**Iogann Kaspar Lafaterning** fiziologik tizimi mashhur bo'lib ketdi. U inson boshi “qalbini ko'rsatadigan oyna” bo'lib sanaladi va uning tuzilishini, bosh suyagining konfiguratsiyani, imo-ishorasini o'rganish kishi xarakterini o'rganishning asosiy yo'li deb hisobladi. Lafater taniqli odamlar shaxsi ustidan bir qator oqilona kuzatishlar qoldirdi. Ular uning ilmiy jihatdan mutlaqo ahamiyatsiz, lekin juda qiziqarli “Fiziognomika” kitobida yig'ilgandir. Lafaterning fikriga ko'ra, **Gyotening** geniyli haqida eng ko'p darajada uning, “burni dalolat beradiki, u Gyote pozitsiyasining mahsuldorligini, mazmuni va muhabbatini - qayd etadi”. Lafaterning o'limidan keyin ko'p o'tmay paydo bo'lgan yangi xarakterologik ta'limot frenologiya degan nom oldi. Frenologiya nemis vrachi Frans Gallning nomi bilan bog'langandir. Gall ta'limotining asosida xarakterning barcha xususiyatlari bosh miya yarim sharlarida o'zlarining qat'iy ixtisoslashgan markazlarga ega degan tasdiq yotadi. Bu fazilatlarining rivojlanish darajasi miyaning tegishli qismlari kattaligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Gallning maslagiga ko'ra, bosh suyaklari miyaning qavariq va chuqurcha joylariga aniq mos kelganligi uchun ham, uning ruhiy belgilarini aniq aytib berish uchun kishining bosh suyagiga bir nazar tashlash yoki shunchaki boshning “Bo'rtik joylarini” ushlab ko'rish aftidan yetarli bo'lsa kerak. Xarakterning tarkibi

faqat ayrim xususiyatlarining o'zaro bog'liqligi bilan emas, balki bir butun xarakterga xos bo'lgan xususiyatlar bilan belgilanadi.

Xarakterning xususiyatlari jumlasiga birinchidan, ularning chuqurlik darajasi kiradi. Shaxsning markaziy, asosiy munosabatlari bilan belgilanadigan xususiyatlarini biz xarakterni bir muncha chuqurroq xususiyatlari deb ataymiz. Masalan, barkamol shaxsda odamlarga, jamoa va mehnatga nisbatan vijdonan munosabatda bo'lish bilan belgilanadigan xususiyatlar chuqurroq xususiyatlar hisoblanadi. Ikkinchidan, xarakter kuchi yoki faolligi. Xarakter faolligi xarakter xususiyatlarining kishini biror narsaga qarshilik ko'rsatish darajasi bilan belgilanadi. Uchinchidan, xarakterning tarkibiy xususiyatlariga uning barqarorlik va o'zgaruvchanlik darajasi kiradi. Xarakter barqarorligi va o'zgaruvchanligi ham moslashish faoliyatining zarur shartlaridandir. Xarakterning u yoki bu xususiyati miqdoriy ifodaliligi oxirgi marraga yetib va normaning eng oxirgi chegarasiga borib qolganda **xarakterning** aksentuatsiyasi (ortiqcha urg'u berilishi) deb ataladi. Xarakterga ortiqcha urg'u berilishi ayrim xarakter xususiyatlarining kuchayishi natijasi sifatida normaning oxirgi variantlaridan biri sanaladi. K.Leongard tomonidan xarakter aksentuatsiyasi muammosi o'rganilib uni shaxsda namoyon bo'lishiga qarab quyidagilar tasniflanadi: Gipertim tip - haddan tashkari aloqaga kirishuvchan, ko'p gapiradi, imo-ishora, mimikaga boy, suhbat mavzusini burib yuborishga moyil, ko'pincha xizmatga doir va ommaviy majburiyatlarni unutib qo'yganligi sababli ziddiyatlar kelib chiqadi. Distim tip - kamgap, muloqotga kirishishga qiynaladi, pessimist, ziddiyatlardan o'zini olib qochadi, uyda yolg'iz qolishni yoqtiradi. Sikloid tip - kayfiyati tez o'zgarishga moyil, kayfiyati yaxshi paytda - gipertim, yomon paytda distim tipga o'xshab qoladi. Qo'zg'aluvchan tip - muloqotda passiv, verbal va noverbal reaksiyalari sust, qaysar, ba'zan urushqoq, ko'pincha turli mojarolarning tashabbuskori. Kuchaytiruvchi tip - kamgap, aql o'rgatishni yoqtiradi, yuqori natijalarga erishishni hohlaydi, tez xafa bo'ladi, shubhalanuvchan, qasoskor. Kichik-kichik muammolarni kattalashtirishga, bo'rtirishga moyil. Pedant tip - ziddiyatlarga kam qo'shiladi, ko'pincha passiv holatda bo'ladi, atrofdagilarga ko'plab rasmiy talablar qo'yadi, tartibli, jiddiy ishonchli xodim. Xavotirli tip - kamgap, odamovi, o'ziga ishonmaydi, ziddiyatlardan o'zini olib qochadi, tinchliksevar, o'z-o'zini tanqid qiladi. Topshiriqlarni vaqtida bajaradi. Emotiv tip - tor doiradagi kishilar bilan muloqotga kirishishni yoqtiradilar, xafa bo'lsa tashqaridan sezdirmaslikka harakat qiladi, mehribon, hamxo'r, ma'suliyatni his qiladi. Boshqalarning yutuqlaridan quvonadi. Namoyishkorona (demonstrativ) tip - muloqotga tez kirishadi, yetakchilikka intiladi, hokimiyat va maqtozni yoqtiradi, boshqalarni o'ziga jalb qila oladi, noyob tafakkurga, xulq-atvoriga ega. Ekzaltirlashgan tip - o'ta muloqotga kirishuvchan, ko'p gapiradi, qiziquvchan, do'stlari va yaqinlarga e'tiborli, boshqalarga yordam beradi, did-farosatli, samimiy. Ekstrovertlashgan tip - muloqotga kirishuvchan, do'stlari ko'p, ziddiyatlardan o'zini olib qochadi, boshqalarni diqqat bilan eshitish mumkin. Topshiriqlarni vaqtida bajaradi. Introvertlashgan tip - muloqotga kirishishga qiynaladi, "ichimdagini top", falsafiy fikr yuritishni yoqtiradi, qat'iyatli, e'tiqodi mustaqkam, qaysar, tafakkuri qotib qolgan. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonida xarakter aksentuatsiyasini tarbiyalash va tuzatish mumkin. Psixologiya tarixida xarakterning tipologiyasini yaratishga bir necha bor urinib ko'rilgan. Nemis psixologi va psixiatri E.Krechmer tomonidan XX asr boshlarida tavsiya etilgan tipologiya eng mashhur va dastlabki urinishlardan biri edi. Keyinchalik uning hamkasblari U.Sheldon, E.Fromm, K.Leongard va A.E.Lichkolar tomonidan ham shunday tipologiyalar tavsiya etilgan.

Mening fikrimcha, xarakter inson hayotidagi eng muhim omillardan biridir. Chunki insonning qanday inson bo'lib yetishishi, jamiyatdagi o'rni, boshqalar bilan munosabati va hayotdagi muvaffaqiyatlari ko'p jihatdan uning xarakteriga bog'liq bo'ladi. Ba'zan inson juda bilimli yoki iste'dodli bo'lishi mumkin, ammo agar unda mas'uliyat, sabr-toqat, halollik yoki mehnatsevarlik kabi ijobiy xarakter xususiyatlari bo'lmasa, u o'z maqsadlariga erishishda qiyinchiliklarga duch keladi. Shu sababli men xarakter insonning eng katta boyliklaridan biri deb hisoblayman. Mening nazarimda, insonning xarakteri tug'ma emas, balki tarbiya va hayotiy tajribalar orqali shakllanadi. Oiladagi muhit, ota-onaning tarbiyasi, ustozlarning nasihati va do'stlarning ta'siri inson xarakterining rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Ayniqsa, bolalik davrida berilgan tarbiya insonning kelajakdagi hayotiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois yoshlarni yaxshi muhitda tarbiyalash juda muhimdir. Men ijobiy xarakter sifatleri insonni har qanday qiyinchilikni yengishga undaydi deb o'ylayman. Masalan, qat'iyatli va sabrli inson maqsadiga erishish uchun tinmay harakat qiladi. Halol va mehribon inson esa boshqalarning hurmatiga sazovor bo'ladi. Shu bilan birga, salbiy xarakter xususiyatlari — dangasalik, jahldorlik, yolg'onchilik yoki mas'uliyatsizlik insonning hayotiga salbiy ta'sir qiladi va uning jamiyatdagi obro'sini pasaytiradi. Bugungi kunda jamiyatga nafaqat bilimli, balki yuksak ma'naviyatli va mustahkam xarakterga ega insonlar kerak deb hisoblayman. Chunki kuchli xarakter insonni turli salbiy ta'sirlardan himoya qiladi, unga to'g'ri yo'l tanlashga yordam beradi va hayotda mustaqil qaror qabul qilish imkonini beradi. Ayniqsa, yoshlar orasida irodali, vatanparvar, mas'uliyatli va mehnatsevar insonlarni tarbiyalash kelajak taraqqiyoti uchun juda muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, xarakter inson shaxsining eng asosiy va hal qiluvchi psixologik xususiyatlaridan biri bo'lib, uning butun hayoti davomida muhim rol o'ynaydi. Insonning jamiyatdagi o'rni, kasbiy faoliyati, shaxslararo munosabatlari va hayotiy muvaffaqiyatlari ko'p jihatdan uning xarakter sifatlariga bog'liqdir. Shuning uchun xarakter faqatgina ichki ruhiy xususiyat emas, balki insonning hayot yo'lini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xarakter tug'ma emas, balki hayot davomida shakllanadigan murakkab psixologik jarayon hisoblanadi. Oilaviy tarbiya, ta'lim jarayoni, ijtimoiy muhit, do'stlar bilan munosabat va shaxsning o'z ustida ishlashi uning xarakterini shakllantirishda asosiy omillar bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, bolalik va o'smirlilik davrida berilgan to'g'ri tarbiya insonning kelajakdagi xarakterini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ijobiy xarakter sifatleri — mas'uliyat, halollik, sabr-toqat, mehnatsevarlik, qat'iyatlilik va mehribonlik — insonni jamiyatda hurmatli va muvaffaqiyatli shaxsga aylantiradi. Bunday fazilatlar insonning maqsadlariga erishishini osonlashtiradi va uning ijtimoiy hayotdagi o'rnini mustahkamlaydi. Aksincha, salbiy xarakter xususiyatlari inson hayotida turli qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi va uning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, zamonaviy jamiyatda xarakter tarbiyasining ahamiyati yanada ortib bormoqda. Chunki bugungi kunda nafaqat bilimli, balki ma'naviy yetuk, mustahkam irodali va ijobiy xarakterga ega insonlar jamiyat taraqqiyotining asosiy kuchi hisoblanadi. Shu sababli ta'lim va tarbiya jarayonida xarakter masalasiga alohida e'tibor qaratish zarur. Umuman olganda, xarakter inson hayotining barcha jabhalariga ta'sir qiluvchi muhim omil bo'lib, uni to'g'ri shakllantirish va rivojlantirish har bir insonning shaxsiy burchi hisoblanadi. Yaxshi shakllangan xarakter insonni komillikka, yuksak ma'naviyatga va muvaffaqiyatli hayotga yetaklaydi.

**Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya: O'quv qo'llanma. – Toshkent: Universitet, 2002. – 320 b.
2. Leonhard K. Aktsentuirovannye lichnosti (Xarakter aktsentuatsiyasi). – Kiev: Visha shkola, 1981. – 392 b.
3. Leontyev A.N. Faoliyat, ong, shaxs. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 256 b.
4. Lichko A.E. Psixopatii i aktsentuatsii xarakteru u podrostkov (O'smirlar xakteri va psixopatiya turlari). – Sankt-Peterburg: Rech, 2010. – 256 b.
5. Rubinshteyn S.L. Osnovi obshey psixologii (Umumiy psixologiya asoslari). – Sankt-Peterburg: Piter, 2002. – 720 b.
6. G'oziyev E.G'. va boshqalar. Umumiy psixologiya: Darslik (O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari uchun). – Toshkent: "O'qituvchi", 2010.